

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 60840100 – veterinariya meditsinasи (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan dotsent Z.J. Shapulatova tomonidan yozilgan “Pasterelloz qo‘zg‘atuvchisi” mavzusidagi ma’ruza matniga**

## **T A Q R I Z**

Ushbu mavzudagi ma’ruza “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan 60840100 – veterinariya meditsinasи (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi uchun dastur va sillabus asosida o‘zbek tilida yozilgan. Mavzu tuzilgan texnologik xarita, rejaga asosan yoritilib, unda qo‘llanilgan asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati, tayanch iboralar, nazorat, test savollari mavjud. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklarni, fuqarolarning shaxsiy hayvonlarini katta iqtisodiy Zarar keltiruvchi pasterellozdan himoya qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Har yili kasallikning epizootologiyasi, qo‘zg‘atuvchining organizm va tashqi muhitdagi hayot faoliyati, o‘zgaruvchanligi bo‘yicha yangi ma’lumotlar to‘planadi. Bu esa o‘z navbatida har bir nosog‘lom punktni aniqlash, kasallikka o‘z vaqtida to‘g‘ri diagnoz qo‘yish va yo‘q qilish rejalarini ishlab chiqishni taqozo etib mavzuning yanada dolzarb ekanligini isbotlaydi.

Ma’ruzada kasallik ta’rifi, qo‘zg‘atuvchisining morfologiyasi, kultural xususiyatlari, biokimyoviy xususiyatlari, chidamliligi, patogenligi, antigen tuzilishi, diagnozi, qo‘llaniladigan biopreparatlar tartib bilan o‘z ifodasini topgan.

Ma’ruza mavjud ilm-fanning zamonaviy eksperimental laboratoriya tajribalari natijalari bilan boyitilgan, zamon, davr va fan taraqqiyotidan kelib chiqqan holda diagnostika usullari yoritilgan.

Ushbu 60840100 – veterinariya meditsinasи (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan dotsent Shapulatova Z.J. tomonidan yozilgan “Pasterelloz qo‘zg‘atuvchisi” mavzusidagi ma’ruzasini ijobiy baholayman.

**Mikrobiologiya, virusologiya  
va immunologiya kafedrasi mudiri, b.f.d.**

**Aliyev D.D.**



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 60840100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan dotsent Z.J. Shapulatova tomonidan yozilgan “Pastereloz qo‘zg‘atuvchisi” mavzusidagi ma’ruza matniga**

## **T A Q R I Z**

Ushbu mavzudagi ma’ruza “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan 60840100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi uchun dastur va sillabus asosida yozilgan. Mavzu tuzilgan texnologik xarita, rejaga asosan yoritilib, unda qo‘llanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati, tayanch iboralar, darsning maqsadi, vazifalari, mazmuni, nazorat, test savollari mavjud.

Ma’ruzada kasallik ta’rifi, qo‘zg‘atuvchisining morfologiyasi, kultural xususiyatlari, biokimyoiy xususiyatlari, chidamliligi, patogenligi, antigen tuzilishi, diagnozi, qo‘llaniladigan biopreparatlar tartib bilan o‘z ifodasini topgan.

Ma’ruza ixcham, sodda tilda yozilgan bo‘lib, talabalar o‘zlashtirishi uchun juda qulaydir. Mavzuga oid rasm va jadvallar o‘z o‘rnida izohi bilan berilgan. Muallif mavzuni to‘lig‘icha yoritib, uni o‘qiganda oddiy va yengil tushuncha hosil qilishiga erishgan. Ayniqsa laboratoriya tekshiruvining mikroskopik, bakteriologik, biologik, serologik usullari va yakuniy diagnoz qanday, nimaga asoslanib qo‘yiladi, ularning hammasini juda yaxshi, aniq, ravon yoritib bergen.

Aholini turmush sharoitini yaxshilashga, tadbirkorlikni rivojlantirishga, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorvachilikni yuksaltirishga qaratilgan dasturlar, veterinariya mutaxassislari, olimlari oldiga hayvonlar orasida uchraydigan infektion kasalliklarni oldini olish, o‘z vaqtida aniqlashni, hayvonlarni sog‘lom o‘sirishga qaratilgan tadbirlarni kuchaytirishni va barcha ushbu masalalarda ularning javobgarligini yanada oshirishni talab qiladi. Ayni paytda ushbu ma’ruza talabalarda mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka paydo bo‘lib, bo‘lajak veterinariya vrachlarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu 60840100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan dotsent Shapulatova Z.J. tomonidan yozilgan “Pastereloz qo‘zg‘atuvchisi” mavzusidagi ma’ruzasini ijobiylayman va muallifga omad tilayman.

**Samarqand viloyat XKPvaOOMX  
tashxis markazi if ava psr  
laboratoriya mudiri, v.f.d.**

**Quchqarova C.Q.**

